

## BADIY MATNDA XUSHMUOMALALIK IFODALOVCHI VOSITALAR

Feruza Umurova

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o‘qituvchisi*

**Jo‘rayeva Yulduz**

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur matnda badiy asarlarda xushmuomalalikni ifodalashning grammatik vositalari tahlil qilinadi. Xushmuomalalikni ifodalashda leksik, morfologik, sintaktik, va grammatik vositalar qanday ishlatalishi, ularning muloqotdagi ta’siri, va madaniy kontekstdagi ahamiyati muhokama qilinadi.*

**Kalit so‘zlar:** *Xushmuomalalik, grammatik vositalar, badiy asar, leksik vositalar, morfologik vositalar, sintaktik vositalar, hurmat, ekstraliningvistik vositalar.*

Badiy adabiyotda xushmuomalalik va uning ifodalanish shakllari alohida ahamiyatga ega. Muloqotda xushmuomalalik insonlar o‘rtasidagi iliq, samimiyligini munosabatlarni o‘rnatishda muhim rol o‘ynaydi. Badiy asarlarda esa, xushmuomalalik, faqat kishilar o‘rtasidagi munosabatlarni tasvirlashda emas, balki o‘quvchi yoki tinglovchiga muallifning asosiy g‘oyasini yetkazishda ham muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Ushbu asarda, badiy matnlarda xushmuomalalikni ifodalash uchun ishlataladigan grammatik vositalar tahlil qilinadi. Leksik, morfologik, sintaktik va grammatik vositalar yordamida xushmuomalalikning qanday qilib samarali ifodalanganligi, ular orqali qanday ijtimoiy, madaniy va emosional ta’sir ko‘rsatish mumkinligi ko‘rsatiladi. Badiy asarlarda xushmuomalalikni ifodalash orqali adiblar o‘z asarlarida nafaqat qahramonlarning ruhiyatini, balki muloqotning nozik jihatlarini ham yoritadilar, bu esa o‘quvchiga maxsus ta’sir o‘tkazadi.

Badiy asarda kundalik-maishiy jarayonda xushmuomalalikni ifodalashning grammatik vositalari quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

- **Leksik vositalar: murojaat shakllari, atoqli otlar, taxalluslar;**

- *Nigoraxon, men sizga nima degandim?* (Said Ahmad “Kelinlar qo‘zg‘aloni”)

- *Kechirasiz, Niyoziy Nomozovich... Nafisa Diyorovna eri Karim Karimovich bilan arazlashib, uyidan ketib qolgan.* (A. Qahhor “Shohi so‘zana”). Parchada noxo‘sh xabarni ham xushmuomalalikning “kechirasiz” shakli orqali badiy ta’sirchanlikni oshirgan holda ifoda etilgan.

- **Morfologik vositalar: erkalash, kichraytirish qo‘sishchaları**

- *Qorako’zgina, qayoglarda sanqib yuribsan? Majnun, yaralaringga dori surtaman.* (“Qora ko‘z majnun”. S.Ahmad).

“- *O‘zimning ulginam, suyanchiqqinam, - derdi shunday paytlari onasi uni erkalab.*

- *Silardi deb dunyoda yashab yuribman-da, mening mehribonginam*”. (“Urush odamlari”. N.Eshonqul).

“- Eh, tentak qizim, qo‘zichog‘im”. (Sh.Rashidov G`oliblar) – Kel, bacham! – dedi pastdan qo‘lini cho‘zib. (“Ikki eshik orasi”. O‘. Hoshimov).

Erkalash va kichraytirish qo‘shimchalari orqali mehr-muhabbat, iliqlik, samimiylilik kabi hissiyotlar ifodalanadi.

“Qorako‘zgina” – gina qo‘shimchasi mehr va samimiyatni bildiradi, yaqinlikni ko‘rsatadi. Shu orqali yumshoq va mehribon munosabat ifodalanadi. “Mehribonginam” – gina va -m egalik qo‘shimchasi shaxsiy yaqinlikni, ona va bola o‘rtasidagi hissiy bog‘liqlikni kuchaytiradi. Sotsiopragmatik jihatdan bunday qo‘shimchalar muloqot ishtirokchilari orasida iliq, do‘stona muhitni yaratadi.

### **Grammatik vositalar: yuklamalar,**

- Anvar, qo‘ysang-chi, hazillashdim-ku? (O‘.Hoshimov “ Bahor qaytmaydi”). Bu badiiy matn parchasida qiyin vaziyatda qolgan qahramonning ruhiyatini ochib berishda, hurmat, xushmuomalalikni ifoda etish uchun –chi, -ku yuklamalaridan foydalanilgan. “Hazillashdim-ku” - bu so‘z bilan u o‘z gapining hazil ekanligini bildiradi va tushunmovchilikning oldini olishga intiladi. Bu yerda gapni yumshatish, shaxsiy xafa bo‘lishning oldini olish xushmuomalilik strategiyasi sifatida qo‘llanadi.

Siz bilan bir oz gaplashishim mumkinmi, ulug‘ ustoz? (Oybekning, “Navoiy” romani).

Matnda xushmuomalalik –mi so‘roq yuklamasi orqali ifodalangan. Shu bilan birga “ulug‘ ustoz” murojaati hurmatni aks ettirgan..

Bu achchiq gaplarni eshitib ko‘nish mumkinmi? (Cho‘lponning “Kecha va kunduz”).

Haqiqatni tan olish qiyin, lekin sen buni qila olasanmi?

(Abdulla Qahhor, “Sarob”).

Matndagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xushmuomalalik ifodalashda fe’lning turli shakllari asosan so‘roq yuklamalari bilan birgalikda qo‘llanilgan.

### **Sintaktik vositalar: kirish iboralar, modal so‘zlar;**

Matnda xushmuomalalik ifodalashda qo‘llaniladigan kirish so‘zlar, asosan, nutqning o‘zaro bog‘liqligi va uyg‘unligini ta’minlash bilan birga so‘zlovchining subyektiv munosabati va his tuyg‘ularini hurmat va iltifot mazmuni ifoda etishda qo‘llaniladi.

- Ofarin, Mavlonning da’volari isbot bo‘ldi, — deb yubordi hamma. (M. Osim, Sehrli so‘z).

“- Voy, o‘g‘limdan aylanay! — Shahodat xola sevinib ketdi.

- Voy, bolaginam-a! Pul yuborib nima qilarkan! Xat-pat ham bormi?

- Huvv, tasadduq, huv-v-v! — degan cho‘ziq ovoz eshitildi.

- Bir qatim emas, bir g‘altak oling, tasadduq. Ip sizdan aylansin!” (“Sovg‘a”. O‘lmas Umarbekov).

Har ikkala matnda ham ijobjiy xushmuomalalik asosiy o‘rinni egallaydi. Bu madaniyatimizdagi muloqotning iliqlik va samimiyatga yo‘naltirilganligidan dalolatdir.Modallikning hissiyati va undov shakllari orqali personajlarning his-tuyg‘ulari va ijtimoiy rol-lari ifodalanadi.Har ikki matn ham o‘zbek madaniyatiga xos bo‘lgan hurmat, samimiyat va mehmondo‘stlikni tasvirlaydi.

Ushbu parchada shaxsning fikrlari yoki da'volarining haq ekanligini e'tirof etish orqali unga hurmat ko'rsatilmoqda. Bu, ayniqsa, shaxsning ismi keltirilganida, shaxsning fikrlari tan olinishni bildirish bilan birga shaxsning o'zini qadrlash hissini oshiradi, do'stona va ijobiy munosabatini aks ettiradi. *Ofarin* so'zi orqali xushmuomalalik esa insonning yutuqlarini tasdiqlash va rag'batlantirishni ifodalaydi.

Chaqqon, epchil ishlayotgan askarlar oldida to'xtab: -*Ofarin bahodirlar! — deb maqtab o'tardi general.* (Oybek, „Quyosh qoraymas“). Matnda "ofarin" so'zi orqali general askarlarning harakatlarini yuksak baholashi, ularga hurmat va e'htirom ko'rsatayotganini ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birga bu so'z zamirida maqtash ma'nosi ham mavjud bo'lib, bu so'z askarlarning shijoati va qobiliyatlarini ijobiy baholash uchun ishlatalidi. Bu yerda xushmuomalalik umumiyligi maqtov shaklida ifodalanmoqda. "Bahodirlar" so'zini qo'llash orqali askarlarning jasoratini va kuch-qudratini yuksakligini ta'kidlaydi. Xushmuomalalik kategoriyasi sifatida ijtimoiy munosabatlarda umumiyligi yaratadi va jamiyatda uyg'unlikni ta'minlashga yordam beradi.

- *Barakalla, yigit. Mana bunisiga qoyil!* (K. Yashin, Hamza)

"Barakalla" - bu so'z maqtov va tasdiqlashni bildiradi. U orqali muallif yigitning qilgan ishini qadrlab, unga yuqori baho bermoqda. "Barakalla" ijobiy baho va e'tirofnii ifodalaydi, shaxsning qobiliyatini yoki muvaffaqiyatini samimiy tarzda tasdiqlash orqali xushmuomalalikni ko'rsatadi.

- *Tashakkur, azizim! — Malik ul-sharob mast-alast mayxo'rlarni sira xushlamas edi, biroq bu yosh sayyohning sarmast qiliqlari yosh bolaning erkalanishlariday samimiy va yoqimtoy edi.* (Ko'hna dunyo. O.Yoqubov).

Tashakkur modal so'zi orqali minnatdorchilik va samimiyyat ifodasi mavjud. Bu so'z orqali e'tibor va hurmat ko'rsatilib, shaxsning mehnati yoki yaxshi munosabati qadrlanayotganini ko'rsatadi. "Azizim" so'zi esa muloqotni yanada samimiy, iliq tusga kirgizadi, shaxslar o'rtasidagi yaqinlik va mehrni bildiradi.

- *O'g'il ko'rib siz, janobi otaliq, — dedi Hamida begin. — Muborak bo'lsin!*

- *Qulluq, hazrat begin. Bizga ne xizmatlar bor? Bilgali keldim.* (P. Qodirov "Avlodlar davoni").

- *Hazratim, she'ringiz muborak bo'lsin!*

- *Qulluq. Endi mening dardimni tushungandirsiz?* (P. Qodirov "Yulduzli tunlar").

"Qulluq" so'zi minnatdorchilik bildiruvchi hurmatli ifoda bo'lib, ushbu parchalarda xushmuomalalik va hurmatning semantikasi qadimgi odob va an'anaviy muloqot madaniyatiga asoslangan bo'lib, qahramonlar o'zaro munosabatlarda samimiyyat va ehtiromni yuksak ifoda etadi.

Sintaktik vositalar muloyim iltimos, minnatdorchilik, kechirim so'rash, tabriklash kabilarni ifodalash uchun ishlataladigan sintaktik birliklar: *Xohlaysizmi..., Qarshi bo'lmasangiz..., Agar sizga malol kelmasa...., Agar sizga qiyin bo'lmasa..., Iloji bo'lsa..., Kechirasiz, iltimos... Men sizga rahmat aytaman...* va shu kabilalar bilan ifodalanadi.

**Ekstralivingistik vositalar.** Bizga ma'lumki, til nutq orqali ro'yobga chiqadi. Emotsionallik esa nutqqa xosdir. Shularni e'tiborga olgan holda nutq paralingvistik va eksrtalingvistik vositalardan foydalanadi.

Ekstralivingistik vositalarga lisoniy birliklardan tashqari barcha nutq jarayonidagi barcha vositalar kiradi. Ya'ni, lisoniy birliklar: fonemalar, morfemalar, leksemalar, grammatik qoidalar va qonuniyatlar, uslubiy vositalar ekstralivingistik vositalarga hisoblanmaydi. Jumladan, kontekst, nutq sharoiti, tinglovchi va so'zlovchining munosabatlari, nutq jarayonida ularning xatti-harakatlari, qolaversa, nutq maqsadi – barchasi ekstralivingistik vositalardir.

O'zbek tilshunosligi 90-yillarga qadar, asosan, sotsial tilshunoslik yo'nalishida rivojlanganligi sababli paralingvistik va ekstralivingistik vositalarni nolingvistik, nolisoniy hodisalar sifatida mutlaqo o'rganmas edi. Keyingi davrlarda jahon tilshunosligida sotsiolingvistik tadqiqotlarning salmog'i osha borishi ta'sirida o'zbek nutqining paralingvistik vositalariga ham e'tibor berila boshlandi. Bu yo'nalishda Siddiq Mo'minov, Sharifa Iskandarova, Ma'murjon Saidxonov kabilarning tadqiqotlari diqqatga sazovordir. Umuman olganda, o'zbek nutqiy muloqotida paralingvistik va ekstralivingistik vositalar o'z tadqiqotlarini kutib turgan masalalardan biridir.[N. Shayxislamov. Nutqning paralingvistik va ekstralivingistik vositalari haqida mulohazalar. file:///C:/Users/User/Desktop/FERUZAGA/nutqning-paralingvistik-va-ekstralivingvistik-vositalari-haqida-mulohazalar.pdf.].

A.M. Shelgunova turli supersegment holatlarni, prosodik birliklarni noverbal vosita sanab, intonatsiya, urg'u ham ba'zan kommunikatsiyada hech qanday axborot bermasa-da, har bir til uchun o'ziga xos bolgani uchun noverbal vositalar jumlasiga kirishini aytib o'tadi [Сайдхонов М. Алоқа-аралашув ва имо-ишоралар. – Тошкент., Фан. 2008. – Б.51]

O'zbeklarda aloqa-aratashuvda ishlatiladigan kinetik noverbal vositalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Ishoraviy noverbal vositalar.
2. Mimik noverbal vositalar.
3. Badan va gavda harakatlari.

Ishoraviy noverbal vositalarga bosh, qo'l, yelka, oyoq, gavdaning ma'lum ma'no ifodalash uchun ishlatiladigan harakat va holatlari kiradi<sup>1</sup>.

Badiiy asarda so'zlovchi tinglovchi holatini, nutq jarayoniga munosabatini ifodalashda uning ko'zlar va yuz ifodasi asosida tasvirlaydi. Badiiy matnda adresantning jonli xatti-harakatlari – paralingvistik vositalari: ovoz tembri, qosh chimirishi, qo'l harakati, yuz ifodasi va h.k.lar asosida kitobxонни diqqatini tortishga, adresatni zerikishdan saqlashga xizmat qiladi. Adib mahorati badiiy asarda eng fojiaviy voqeani tasvirlaganda ham bu omillar asosida xushmuomalalikni ifoda etadi. Badiiy matnda paralingvistik vositalarning me'yordan ko'pligi ham kitobxонни zeriktiradi. Me'yordan ko'p xatti-

<sup>1</sup> Saidxonov M. Ko'rsatilgan asar. – B.51

harakatlar, imo-ishoralar tinglovchi diqqatini chalg‘itadi, uni tinglovchiga emas, balki tomoshabinga aylantirib qo‘yadi.

Badiiy asarda ekstralengvistik vositalarni ifodalashda asosan quyidagilar yetakchilik qiladi:

**1. Kenitik harakatlar.** Bunda ramziy xarakterdagi tana harakatlari va imo-ishoralari: turish, bosh kiyimini echish, ta’zim qilish, qo‘l siqish, qo‘l o‘pish, salomlashish yoki xayrlashish belgisi sifatida qo‘l silkitish va boshqalar.

Xushmuomalalik asosiy belgisi bo‘lgan salomlashish badiiy asarda turlicha palingvistik vositalar orqali ifodalanishi mumkin. Badiiy matnda ham bosh irg‘ash harakati qo‘llanilgan holatlar mavjud:

*O‘tirganlar bunday salomlashishga o‘rganib qolishgani uchun, bosh irg‘ab alik olishdi.* (T. Malik “Shaytanat”)

- qo‘lni yuqoriga ko‘tarib barmoqlarni ochib-yopish, silkitish (xayrlashish ma’nosida);
- qo‘l olishib ko‘rishish;
- o‘ng qo‘lni yurak tepasiga qo‘yish (hurmat, ehtirom ma’nosida);
- qarsak chalish (olqishlash, tabriklash, talab etish, chaqirish ma’nolarida);
- bosh barmoqni ochiq holda yuqoriga qaratish (yaxshi, zo‘r, durust ma’nosida);

*Chuvrindi yigitga qaragan edi, u bosh barmog‘i bilan ko‘rsatkich barmog‘ini birlashtirib, teshik kulcha holatiga keltirdi-da, “hammasi joyida”, deganday chap ko‘zini qisib, kulimsiradi.* (T. Malik. “Shaytanat”)

“Yaxshi”, “zo‘r”, “hammasi joyida” ma’nolarini ifodalash uchun bosh va ko‘rsatkich barmoqni birlashtirib aylana yasash va xushmuomalalik bilan kulimsirash noverbal harakati namoyon bo’lmoqda.

*Selim salom berdi-da gavdasiga yarashmagan holda tez-tez yurib kelib so‘rashish uchun uzatilgan qo‘lni o‘pib, ko‘ziga surtdi. Bu qiliq ma’qul kelib Xongirey o‘zini chin xon kabi his qilib jilmaydi-da, Selimga yonidan joy ko‘rsatdi.* (T. Malik “Shaytanat”)

Yuqorida keltirilgan parchada bir jins vakillarining salomlashuv paytida yuqori tabaqa vakiliga tobe amaldorning xushomad, xushmuomalalik, sadoqat tuyg‘ularini ifodalash uchun qo‘llaridan o‘pib, ko‘ziga surtish jarayoniga misol keltirilgan. Aslini olganda, qo‘ldan o‘pib mulozamat ko‘rsatish va salomlashish Yevropa madaniyatida keng tarqalgan. Xusan, Turkiya, Malayziya, Indoneziya, Somali kabi davlatlarda qo‘ldan o‘pib qo‘yish ikki jinsdagি keksalarda, eng yaqin qarindoshlar o‘rtasida, va o‘qituvchilarga salom berishning keng tarqalgan usulidir. Fransuzlarda esa ayollarga mulozamat ko‘rsatish va xushmuomalalik yuzasidan qo‘llaridan o‘pib salomlashishadi. Bu fransus madaniyatiga xos bo‘lgan xususiyatdir.

**2. Mimik harakatlar.** Yuz mushaklarining ishora harakatlari: tabassum, qarash, qayg‘u ifodasi, qayg‘u, hayron, hayrat va boshqalar.

Badiiy asarda ekstralengvistik vosita sifatida tabassum bilan javob berish xushmuomalalikning asosiy belgisi deb qaraladi. Tabassum - yuz ifodasi. Amerikaliklar madaniyatida tabassum qilish odatiy hol bo‘lib, xoh begona bo‘lsin, xoh tanish bo‘lsin ular

tabassum bilan javob berishadi. Osiyo xalqlari esa nafaqat quvonch va shodlik ulashish uchun, balki xushmuomalalik belgisi sifatida tabassumdan foydalanishadi. Adib badiiy matnda muhitni ko‘rsata olish, o‘sha holatda qahramonning nutqida xushmuomalalikni ifodalash maqsadida tabassumdan unumli foydalanadi.

– *Bizning qishloqlarda hozir mexanizatsiyani qarshilikka uchraydigan, odamlar cho‘chiydigan yangilik deb bo‘larmikin? – dedi rais xiyol tabassum qilib. – Respublikamizda hozir ikki yuzdan ortiq MTS bor. Qani, sen nima deysan, Qunduzxon?* (A. Qahhor, “Kartina” hikoya).

Matnda mimik harakqlar bilan bir qatorda lisoniy birliklardan ham foydalanilgan. So‘roq yuklamasi –mi va murojaat shaklining –xon ko‘rinishi orqali xushmuomalalikning asosiy ko‘rinishi ifoda etilgan.

O‘zbek xushmuomalaligida quchoqlashib ko‘rishish, yoki quvonganda, sevinganda bir-birini quchoqlab qo‘yish holatlari odatda tez-tez ko‘zga tashlanib turadigan jarayondir, ammo ushbu holat yosh bolalar nutqida achenlashish sifatida talqin qilinadi va kattalardan farqli o‘laroq, bolalarcha soddalik va samimiylikni zohir etadi. Badiiy matnda bu voqealar rivojini hayotiy akas ettirish uchun muhim hisoblanadi. Qahramonlarning arazlashish holatlarida so‘ng xushmuomalalik belgisi sifatida kechirim so‘rash , qo‘l berish harakati ham bolalarda ko‘proq ko‘zga tashlanadi:

– *Sendan kechirim so‘ragani keldim, – dedi Qamariddin. Qamariddin unga yaqinlashib qo‘l uzatdi:*

– *Kechir.*

– *Nazimchik, bechorani kechira qol. O‘zi shundog‘am xudo urib qo‘yibdi, – dedi bolalardan biri. Nozim deganlari “ha, mayli” deb qo‘l berdi.* (T.Malik “Shaytanat”).

– *Rais buva yaqin kelib, qo‘l cho‘zdi. – Obbo, tutxo‘r-ey ! –dedi qo‘limni qisib.* (O‘. Hoshimov “Ikki karra ikki besh”). Matnda modal so‘z bilan birga –ey erkalashning lug‘aviy shakli orqali xushmuomalalik ifodalangan. Shu bilan birga qo‘l qisish orqali paralingvistik vositalar ham qo‘llanilgan.

– *Xo‘jayin savdo ahliga xos tavozelik bilan so‘rashib, ikki qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib: Bag‘ringiz to‘lib, xursand bo‘lib qoldingizmi? - dedi.* (T.Malik “Shaytanat”).

O‘zbek millatida xushmuomalalik vositasi sifatida ishlatiladigan udumlar va adab shakllari muomala bilan bog‘liq bo‘lgan milliy o‘ziga xos, vazifasiga ko‘ra chegaralangan va shu bilan birga, aloqa-aratashuvda faol qatnashuvchi hodisalardir. Ayrim holatlarda ayol kommunikant nutqida ham, erkak kommunikantlar nutqida ham “qo‘lni ko‘ksiga qo‘yish” noverbal harakati uchraydi

Xushmuomalalik belgisi tabassum qilishda ham erkaklar va ayollar o‘rtasida farqlar mavjud bo‘lib, bu borada ham ayollar erkaklardan ko‘ra ko‘proq tabassum qilishlari, har bir jarayonda tez-tez jilmayishlari, kulishlari bilan ajralib turadi.[Ben Wasike “Gender, Parasocial Interaction, and Nonverbal communication: Testing the visual Effect of Sports Magazine Cover Models.2018. P-180]

S. Mo‘minov o‘z tatqiqotida “xushmuomalalik noverbal vositasi hisoblangan o‘pishib ko‘rishish (ayniqsa o‘z jinsi vakillari bilan) o‘zbek millatida erkak

kommunikantlarga xos emas”[ Mo‘minov S. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. Monografiya. 2001. -B.16.]- deb ta’kidlagan. Ammo, badiiy matnda yaqin qarindoshlarni ichki holatini ifoda etish maqsadida, bunday holatlar ota va o‘g‘il (kichik yoshdagi) o‘rtasida kuzatiladi. Misollar:

- *Ana dadasi haligi kishi bilan kulib kirib keldi. “Qalaysan toychoq, mening o‘g‘lim azamat, hech narsadan qo‘rqlmaydi, desam, bular ishonishmay, men bilan garov o‘ynashgan edi. Sinab ko‘rib yutqizganini tan olishdi. Qoyilman senga ularni boplading!” Shunday deb dadasi uni o‘pdi.* (T. Malik “Shaytanat”).

Shu bilan birga uzoq vaqt mobaynida ko‘rishmagan do‘sstar yaqin insonlari bilan salomlashish paytida quchoqlashib ko‘rishi sholatlari badiiy asarda ifodalangan: *Jo ‘ralar quchoqlashib ko‘rishdilar. Bir ko‘chani changitib ulg‘aygan yigitlar fotiha to‘yidan darak topishgan, ular uchun Afzalning harbiydan qaytgani bir shodlik bo‘lsa, ulfatlardan birining bo‘ydoqlik qo‘rg‘onini buzib uylanayotgani o‘nshodlik edi.* (T. Malik “Shaytanat”).

*Fevzi deganlari uzun bo‘yiga monand qorin qo‘ygan, qaddini tik tutib yuruvchi yigit, hovlida Zelixonni ko‘rib, dastlab tanimaganday qaradi, so‘ng birdan chehrasi ochilib, quchoq ochib keldi.* (T. Malik “Shaytanat”).

Xushmuomalalikning ko‘krakka ochiq kaftlarni qo‘yish orqali ayollar harakatida xushmuomalalik, hurmat, itoatkorli, hayrat, hayajon, ma’nolari ifodalananadi, bu holatni erkalarda ham uchratishimiz mumkin:

*Tarzan bo‘lajak ishning xatarini anglab, “Chizgan chizig‘ingizdan chiqmaymiz”, degandek qo‘lini ko‘ksiga qo‘ydi.* (T. Malik “Shaytanat”).

Badiiy matnda adresat bilan adresant kommunikantlarning bir-biriga munosabatini namoyon qiluvchi, fikrini ifodalovchi noverbal vositalar ijtimoiy xoslanganligi va pragmatik ahamiyatliligi, hamda kommunikativ qiymati bilan ajralib turadi. Badiiy matnda xusmuomalalik vositasida shaxsiy munosabatni namoyon qiluvchi noverbal vositalar, avvalo, gender xoslanganligi bilan milliylik kasb etadi. Shu bilan birgalikda , ijtimoiy yoki ma’muriy mavqe ifodalashda ham ularning o‘rni o‘ziga xoslikni ko‘rsatadi. Bularning barchasi turli o‘rin va vaziyatlarda “hurmat” konseptini pragmatik voqelantirishda bir-biri bilan o‘rin almashib turadi. Shuningdek, goh nolisoniy vosita lisoniy vositalarga, goh lisoniy vositalar nolisoniy vositalarga hamrohlik qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mo‘minov S. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. Monografiya. 2001. -B.16.
2. N. Shayxislamov. Nutqning paralingvistik va ekstralinguistik vositalari haqida mulohazalar. file:///C:/Users/User/Desktop/FERUZAGA/nutqning-paralingvistik-va-ekstralinguistik-vositalari-haqida-mulohazalar.pdf.
3. Сайдхонов М. Алоқа-аралашув ва имо-ишоралар. – Тошкент., Фан. 2008. – Б.5

4. Ben Wasike "Gender, Parasocial Interaction, and Nonverbal communication: Testing the visual Effect of Sports Magazine Cover Models.2018. P-180
5. Umurova F.P. Xushmuomalalik sotsiopragmatik hodisa sifatida. Xorazm ma'mun akademiyasi axborotnomasi . Ilmiy axborotnomasi.2023. 4-son .-B. 172-175.(10.00.00. №21)
6. Umurova F.P. Xushmuomalalikning murojaat semasining gender ifodalanishi. O'zMU xabarlari. 2023. 1/12/2. -B.384-387 .(10.00.00. №15)
7. Umurova F.P. Xushmuomalalik sotsiopragmatik hodisa sifatida tatqiqi Til va adabiyoti ta'limi . 2024. 1-son. -B. 43-45.(10.00.00. №9)
8. Umurova F.P. Xushmuomalalikda minnatdorchilik semalarining badiiy matnda ifodalanishi . 2024. 8/4. Xorazm ma'mun akademiyasi axborotnomasi. Ilmiy axborotnomasi. -B.146-149 (10.00.00. №21)